


Shavkat Mirziyoyev Narendra Modi bilan uchrashdi



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ShHTning Sindao sammiti doirasida Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modi bilan uchrashdi.

Davlatimiz rahbari Hindiston xalqini Shanxay hamkorlik tashkilotiga to'la a'zo bo'lgani, ShHT davlat rahbarlari uchrashuvida yangi maqomda qatnashayotgani munosabati bilan tabrikladi.

Shavkat Mirziyoyev mazkur uchrashuv avval erishilgan kelishuvlar ijrosini muhokama qilish va hamkorlikning istiqbollarini belgilab olish uchun yaxshi imkoniyat ekanini ta'kidladi.

Narendra Modi O'zbekiston Hindistonning ShHTga a'zolikka qabul qilinishini qo'llab-quvvatlagani uchun samimiy minnatdorlik bildirdi. Bu O'zbekiston bilan hamkorlikni ham o'zaro, ham mintaqaviy miqyosda rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochishini qayd etdi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Hindiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, moliyaviy, investitsiyaviy, innovatsiya va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Axborot texnologiyalari, tibbiyot, farmatsevtika, turizm kabi yo'nalishlarda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Shuningdek, xalqaro siyosat va mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Ikki davlat o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirishga tayyor ekanligi qayd etildi.

